



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi
kafedrası mudiri i.f.d DSc, dotsent, fan o'qituvchisi
Farruxbek0209@mail.ru; orcid.org/0000-0002-4574-7728

Ravshanova Shabnam Qosim qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs magistranti
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O'zbekiston
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18255823>

ARTICLE INFO

Received: 13st January 2026
Accepted: 14th January 2026
Published: 15th January 2026

KEYWORDS

*Kompetensiya, innovatsion
texnologiyalar, boshlang'ich
ta'lim, interfaol metodlar,
mustaqil fikrlash, o'quv faoliyati.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o'rni, ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada o'quvchilarda amaliy ko'nikma va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda interfaol uslublar, axborot texnologiyalari va loyiha asosidagi ta'lim imkoniyatlari yoritilgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da har bir bosqichda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish zarurligi qayd etilgan. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimlarini tashkil etish davomida maktablarda innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va samalarali foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifalardan biri bo'lmoqda. Shu o'rinda, Farrux Qodirov aytganlaridek: "Bugungi kunda dunyo raqamli inqilob davrini boshdan kechirmoqda. Axborot texnologiyalari (AT) ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tubdan o'zgartirmoqda, ular rivojlanish uchun muhim harakatlantiruvchi kuch sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyatda ATdan foydalanish nafaqat kundalik hayot qulayligini oshirishga, balki iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga ham xizmat qilmoqda. Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari (AT) iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivoji ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va aholining turmush darajasini ko'tarishda ulkan

ahamiyatga ega". Shu boisdan, ushbu fikrlarning yaqqol misoli sifatida boshlang'ich sinf darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini yanada oshirayotganini kuzatishimiz mumkin.

Boshlang'ich ta'lim — bu o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich bo'lib, unda o'qituvchining innovatsion faoliyati, metodik yondashuvi va texnologik savodxonligi muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, kompetensiyaviy yondashuv asosida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ta'lim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish jarayonida har bir o'qituvchi ota-onalar bilan kelishgan holda pedagogik mahoratidan foydalanib, kasbiy muloqot kompetensiyasini ishga solib faoliyat olib borishi zarur. Yosh bolalarga kichkinaligidan ota-ona va o'qituvchi zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri foydalanishni o'rgatib borsagina, kelajakda ular yetuk mutaxassis, yaxshi kadrlar bo'ladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi.

1. Nazariy tahlil metodi— pedagogika, psixologiya va didaktika sohasidagi ilmiy manbalar tahlil qilindi.
2. Tajriba-sinov metodi — boshlang'ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning faolligi o'rganildi.
3. Kuzatuv va suhbat metodi— o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyati jarayonida innovatsion texnologiyalarning ta'siri kuzatildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Shahrisabz davlat pedagogika instituti qoshidagi amaliyot maktablarining 2–4-sinf darslari tanlab olindi.

Asosiy yo'nalishlar:

- ❖ Kompetensiyaviy yondashuv mohiyatini aniqlash;
- ❖ Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish uslublarini o'rganish;
- ❖ O'quvchilarning o'quv motivatsiyasi va faoliyat natijalariga ta'sirini baholash.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda quyidagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi:

- Kommunikativ kompetensiyalar rivojlandi. Guruhli ishlarda o'quvchilar o'z fikrini erkin ifoda eta oldi, tinglash va muloqot madaniyatini shakllantirdi.
- Ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllandi. "Aqliy hujum", "Insert", "Klaster" metodlaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatdi.
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalari ortdi. Darslarda multimediya taqdimotlari, videodarslar, interaktiv testlar orqali o'quvchilarning qiziqishi oshdi.
- O'quv natijalari yaxshilandi. Innovatsion texnologiyalar qo'llangan sinflarda baholash natijalari an'anaviy usuldagi sinflarga qaraganda o'rtacha 15–20% yuqori bo'ldi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi darslarda o'quvchi shunchaki bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi va tadqiqotchi sifatida qatnashadi. Har bir maktablarda barcha dars mashg'ulotlari 4K modeli asosida tashkil etilishi kompetensiyaviy yondashuvni yaqqol namunasi bo'la oladi. Bu jarayonda o'qituvchining roli o'zgarib, u bilim beruvchi emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, maslahatchi, fasilitatorga aylanadi. Ya'ni, ustozlar o'quvchilar jamoasida o'zaro kommunikativ jarayonlar, kreativ hamda kritik fikrlash va jamoaviy ish olib borishni ta'minlab boradi. Innovatsion darslar jarayonida uyga topshiriqlar berish orqali turli ilovalardan foydalanib, o'qitish jarayonini qulaylashtirish mumkin. Misol tariqasida, "Mutolaa" ilovasini har bir 3-4-sinf o'quvchilarini ota-onasini mobil telefoniga o'rnatib foydalantirish orqali o'quvchilar orasida kitobxonlik madaniyatini, kam vaqt ichida ko'plab asarlar mazmuni va bilimlarni bilib olishlari mumkin bo'ladi. Ushbu innovatsion ilovaning foydali tarafi yo'lda ketyotganda, yoki biror jismoniy mashg'ulot bilan band bo'lgan holatda ham eshitib, ko'plab bilimlarga ega bo'lishadi.

Innovatsion texnologiyalarning samarali turlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- -"Aqliy hujum", "Debat", "Sinkveyn", "Klaster", "Venn diagrammasi" kabi interfaol metodlar;

- - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosidagi elektron darsliklar, turli platformalar va test tizimlari;
- - Loyiha asosida o'qitish texnologiyasi, bu o'quvchini amaliy faoliyatga yo'naltiradi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bu yondashuv natijasida o'quvchilarda metodik ko'nikmalar – o'rganish, tushunish, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada ishlash malakalari rivojlanadi. Interfaol o'qitish metodlari zamonaviy ta'lim tizimida asosiy o'rinni egallaydi. Bu usullar dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning ishtirokini eng yuqori darajada ta'minlab, ularning mavzu bo'yicha o'rgangan bilimlarini yanada mustahkamlashga qaratiladi. Innovatsion metodlar bolalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy g'oyalarini shakllantirishga yordam beradi. Rolli o'yinlar bolalarni turli hayotiy vaziyatlarni tasvirlashga undaydi va bu jarayonda o'quvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalari --kompetensiyaviy yondashuv shakllanadi. Masalan, bolalarga "mehmon-mehmon" o'yini orqali mehmon kutish odobi, mehmonlarga nisbatan hurmatda bo'lish, bundan tashqari nutqiy muloqot kompetensiyalari rivojlanadi balki hayotiy bilimlarni ham oshiradi. Interfaol mashg'ulotlar esa guruhlarda ishlash, muhokama va fikr almashish orqali bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Guruhlarda birgalikda ishlash bolalarning jamoaviy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi texnologiya asrida yashar ekanmiz boshlang'ich ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning diqqatini jalb qilishda samarali usul hisoblanadi. Elektron darsliklar va o'yinlar bolalarning mavzuni oson va qiziqarli tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. Dars jarayonlarida elektron doska orqali turli qiziqarli o'yinlar va quvnoq daqiqalarni qo'yib, o'quvchilarning toliqishini hamda zerikishini oldini olishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilar o'yin faoliyatiga beriluvchan bo'lganligi uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishimiz dars jarayonini yanada jonlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, interaktiv doskalar orqali o'quvchilarga darsda murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish osonlashadi. Interaktiv doska yordamida turli mavzularni ko'rsatish va amaliy vazifalarni bajarish hamda o'quvchilar ongida tushuncha va bilimlarning tasviriy shakllanishi qulay bo'ladi. Oddiy qo'lbola loyihalar (modellash, maketlar) orqali konstruktiv o'qitish jarayonida esa bolalar fazoviy shakllar bilan tanishishi, ularning nomlari va ijtimoiy hayotda qayerda duch kelishlari mumkinligini bilib olishadi hamda quruvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishi yanada shakllanadi. O'quvchilar uchun kichik kodlash vazifalari yoki blok-sintez faoliyatlari (mavzuga mos vizual dasturlar yordamida) boshlang'ich sinf darsliklarida keltirilgan topshiriqlar orqali o'rgatilib, bajartirilib boriladi. Xususan, 2-sinf informatika va axborot texnologiyalari fanida kodlash, dekodlash mavzularidagi topshiriqlarni misol qilib olishimiz mumkin. Darsliklarda alifbo va raqamlar orqali bajariladigan yangi, mantiqiy mashqlar o'quvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'z bilim va ko'nikmalaridan foydalanib ishlashga undaydi va innovatsion texnologiyalar yaratishga turki bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich sinf darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida innovatsion texnologiyalarni qo'llash — ta'lim mazmunini yangilash, o'quvchilarni faol, mustaqil va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashning muhim shartidir. O'qituvchilar uchun eng muhim vazifa — har bir darsni o'quvchi markazida tashkil etish, ularning individual imkoniyatlarini inobatga olish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli qo'llashdan iborat. Shu bois, kelgusida boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni

chuqurlashtirish, elektron jurnal imkoniyatlarini yanada ko'paytirish, AKT asosida o'qituvchilar malakasini oshirish hamda kompetensiyaviy baholash tizimini joriy etish zarur.

References:

1. Qodirov, F. "OPTIMIZATION OF TELECOMMUNICATIONS POWER SUPPLY SYSTEMS BASED ON RELIABILITY CRITERIA." Science and innovation 2.A12 (2023): 15-20.
2. F Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellash. Scienceweb academic papers collection . 2023/1/1.
3. F Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.
4. Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
5. Farrux Qodirov. BUSINESS INNOVATION MODEL OF INCOME AND COSTS FROM THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
6. Farrux Qodirov. ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF THE DEVELOPMENT OF THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
7. Farrux Qodirov. THE PLACE OF ECONOMETRICAL MODELING OF HEALTHCARE QUALITY IMPROVEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
8. Farrux Qodirov. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
9. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 128-130.
10. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 80-83.
11. Qodirov, Farrux. "THE ROLE OF ICT IN THE DEVELOPMENT OF HEALTH SERVICES." RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MA'RUZALAR TO'PLAMI (2022).
12. Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. Бизнес-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.
13. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." Хоразм Маъмун академияси (2022).
14. ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ." AGRO ILM (2022).
15. Qodirov, Farrux. "VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO'NALISH BO'YICHA HOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR." Analytical Journal of Education and Development (2022).

16. Qodirov, Farrux. "FURYE QATORI FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH." МАТЕМАТИК ФИЗИКА ВА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2021).
17. Qodirov, Farrux. "MASOFAVIY TA'LIMDA MOODLE. TUITKF. UZ PLATFORMASINING O'RNI VA ANAMIYATI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР Тўплами (2020).
18. Qodirov, Farrux. "RASPBERREY PI QURILMASINING TEXNIK XUSUSIYATLARI VA UNING IMKONIYATLARI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР Тўплами (2020).
19. Qodirov, Farrux. "PROTECTING WEBSITES FROM VARIOUS ATTACKS." АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИННОВАЦИЯЛАР мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТУПЛАМИ (2019).
20. Кодиров, Ф. "PROTSESS RAZRABOTKI IGROVOGO DVIJKA UNITY." Scienceweb academic papers collection (2019).



INNOVATIVE
ACADEMY